

## SAN'AT TURLARINING UZVIY BOG'LIQLIGI VA ULARNING TARAQQIYOTIDA QORALAMA VA CHIZGILARNI O'RNI

**Baxronova Odina Sharip qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti,

Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi magistranti.

[odinabaxronova2003@gmail.com](mailto:odinabaxronova2003@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20383625>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada tasviriy san'at, naqqoshlik, me'morchilik, dizayn va loyihalash kabi san'at turlarining uzviy bog'liqligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Shuningdek, san'at turlarining taraqqiyotida qoralama va chizgilarni o'rni o'rganilgan.

San'at turlarining inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini yoritib berishga harakat qilingan. San'at turlarini o'rganish, tasvirlash va chizish jarayonida, yuzaga keladigan ba'zi muammolarni bartaraf etishning dastlabki bosqichlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, amaliy san'at, naqqoshlik, me'morchilik, dizayn, loyihalash, suratlar, natyurmort, oddiy qalam, qoralama, xomaki rasm, chizgi, kompozitsiya, qalamtasvir, chizmatasvir, mahorat, sabr toqat, mehnat, madaniyat, estetik zavq.

**Аннотация.** В данной научной статье изложены мысли о неразрывной взаимосвязи таких видов искусства, как изобразительное искусство, орнаментальное искусство, архитектура, дизайн и проектирование. Также изучена роль набросков и рисунков в развитии различных видов искусства. Сделана попытка раскрыть бесценное значение искусства в жизни человека. Освещены начальные этапы устранения некоторых проблем, возникающих в процессе изучения, изображения и рисования различных видов искусства.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, декоративно-прикладное искусство, орнаментальное искусство, архитектура, дизайн, проектирование, изображения, натюрморт, простой карандаш, набросок, эскиз, линия, композиция, карандашный рисунок, чертёжный рисунок, мастерство, терпение, труд, культура, эстетическое наслаждение.

**Abstract.** This scientific article presents ideas about the inextricable connection of such art forms as fine arts, painting, architecture, design and drafting. The role of sketches and drawings in the development of art forms is also studied. An attempt is made to highlight the incomparable importance of art forms in human life. The initial stages of solving some of the problems that arise in the process of studying, describing and drawing art forms are highlighted.

**Keywords:** Fine arts, applied arts, painting, architecture, design, drafting, paintings, still life, simple pencil, sketch, sketch, drawing, composition, pencil drawing, drawing, skill, patience, labor, culture, aesthetic pleasure.

Tarix sahifalariga e'tibor qaratar ekanmiz, mahorat bilan ishlangan tasviriy va amaliysan'at asarlari, yuksak did bilan yaratilgan dizayn modellari, me'morchilik obidalari va turli yuqori saviyada ishlangan badiiy loyihalar vaqtlar o'tishi bilan madaniy me'ros sifatida qadri oshib boradi. Ular kishilar qalbida tevarak atrofga ijobiy munosabatini o'stirib vatanga bo'lgan muhabbatni oshiradi.

Hamda qadimiy milliy urf odatlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, ularni qadrlashga o'rgatadi. O'tgan vaqtlarni tarixga aylantirib kishilarni ana shu tarix bilan tanishtiradigan vositalardan biriga aylanadi.

Shuningdek yoshlarni yaxshilikga yetaklabularning dunyo qarashini kengayishiga va har tamonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishi ushuni yordam beradi. Hamda sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida va mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida ko'makdoshdur.

Azal-azaldan san'at turlari bevosita bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib kelmoqda. Ularning taraqqiyotida esa mo'yqalamsohiblari, amaliy san'at ustalari qo'yinki badiiy ijodkorlar tamonidan chizilgan turli xil xomaki rasmlar, chizgilar, eskizlar, qoralama va qalamchizgilar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek turli tasvir, naqsh yoki chizma va loyihalarni bajarishda, xar jihatdan ko'rkam, shakllar va mukammal kompozitsion yechimini topish borasida yaqindan yordam beradi.

San'at turlaridan biri bu tasviriy san'atdir. «Tasviriy san'at asarlarini tushunishning bir oz osonligi shundaki rassom, o'z fikri va mulohazalarni tahlil qilib umumlashtirib bo'lgan, voqeyliklarni tomoshabin hukmiga havola qiladi»<sup>1</sup>. Tasviriy san'at azal-azaldan insonyatning kundalik turmush tarzi bilan, san'at turlari bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanib kelmoqda. «Bir ko'z oldimizga keltirib ko'rsak, hiyobonlar, ko'chalar, sirk-bog'lar, hashamatli binolar, barcha-barchasini bezatilishi rassom va haykaltaroshlarning mashaqqatli mehnatlari evaziga amalga oshirilgan. Xonadonlarimizning ichki go'zalligi, maktablarimiz, kitob, gazeta-jurnallarning tasvirlar bilan mazmunan yanada jonlanishi, hatto bozorlar, savdo do'konlaridagi har bir xarid qilinadigan buyum va narsalarning bejirim rang-barang bezatilishi, umuman turli-tuman idishlardan etiketkalgacha e'tiborimizni tortadi. Gazmollar, kundalik liboslarning shaklu shamoyili, rangu ro'yi rassomlarimiz mehnati evaziga boyigan»<sup>2</sup> Bundan ko'rinadiki har bir inson qo'lida mo'yqalam ushulasada, ular o'z hayotlarida beixtiyor tasviriy san'at bilan bevosita bog'liq tarzda yashayotganligidan dalolat beradi.

Tasvirlash, sirlarini o'rganishda avvalo qalamtasvirga oid bilimlarni egallash kerak bo'ladi.

Chunki barcha rassom va ijodkorlar san'atning qaysi tur va janrida ijod qilmasinlar ular birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanib rasm chiza boshlaydilar. Oddiy qalam yordamida qoralama va qalamchizgilarni muntazam ravishda ishlashni odat qilish esa tasvirlashni o'rganishda va tasviriy san'at asarlarini tushunishda juda muhimdir. Qoralama so'zi rus tilida nabroska deb ataladi. O'zbek tilining izohli lug'atida esa qoralamoq so'ziga shunday ta'rif berilgan «Qoralamoq-qora tus bermoq, qora tusga kiritmoq, qora rang bilan bo'yamoq, qora qilmoq»<sup>3</sup>.

Albatta badiiyijodkor, rassomlar, amaliy san'at ustalari, me'morlar, shoir va yozuvchilar, dizaynerlar va shu kabi boshqa turli soha vakillari, yangi ijodiy ish boshlashlarida oq qog'ozda turli chizma, loyiha, tasvirlar, kompozitsiya, sh'er, mant va yozuvlarni qoralab nimanidir tasvirlaydilar, chizadilar va yozadilar.

Akademik qalamtasvir, qalamtasvir, chizmatasvirlarni o'rganishda oddiy qalamdan foydalanib qoralama va chizgilar ishlash maqsadga muvofiqdir. Qoralama har-xil vaqt oralig'ida ishlanishi mumkin. Masalan 1-2 daqiqadan yarim soatgacha vaqt oralig'ida bajarilishi mumkin.

Qoramalar ishlash haqida JDPU katta o'qituvchisi Toxirjon Oltmishev «Badiiy ta'limda qalamchizgilarning ahamiyati» maqolasida shunday fikrlarni bayon etgan.

<sup>1</sup> Oydinov Sharip. Oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at mashg'ulotlarida etyudlar ishlashni o'rgatish metodikasi. ("Ilmiy axborotnoma" 2021. 2-son. 198 b. E-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz))

<sup>2</sup> Ойдинов Н. Рассом-ўқитувчиларни тайёрлаш муаммолари. Тошкент "Ўқитувчи", "Зиё-ношир", 1997, 120 - bet.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Z. M. Ma'rufov tahriri ostida. II-tom. Moskva. "Rus tili" nashriyoti 1981-yil. 601 bet

«Qoralama ishlash fikrni bayon qilishda ya'ni tasvirlashda chiziqlar asosiy vosita hisoblanadi, chiziqlarda tasvirlashning katta imkoniyatlari mavjud.

Shtrixlarsiz faqat chiziqlar bilan har qanday ko'rinish va hajmni fazoviy xolatini ko'rsatib berish mumkin bo'ladi». Qoramalar ishlash kabi xomaki rasmlar ishlashning ham o'ziga xos afzalliklari bor. «Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi.

Xomaki rasmlar har xil davomiylilikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm - bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi»<sup>4</sup>. Uzoq muddatli ishlash jarayoniga kirishishdan avval talabalar, dastlab bir necha xomaki rasmlarni oddiy qalamda ishlasalar, ularning qo'li, chiziq va chiziqchalarni aniq va to'g'ri chizishga kelishib qoladi. Shundan so'ng uzoq muddatli ijodiy ishga kirishib, oldin aylana, ellips, burchaklarni to'g'ri qurish, ularni teng bo'laklarga bo'lish kabi mashqlarini bajarish kerak

T. Oltmishev chizgilar haqida ham yuqorida takidlangan maqolasida to'xtalib shunday yozadi. «Chizgi - xomaki rasimga nisbatan ancha to'liq hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasimga qaraganda ancha qisqa vaqt oralig'ida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga qo'yadigan talablariga bog'liqdir». Eslatib o'tish mumkinki oddiy qalamda bajarilgan chizgilarni qalamchizgi deyishimiz mumkin.

Tasvirlash sirlarini o'rganayotgan o'quvchilar, talabalar, san'atga qiziquvchilar, yetuk mo'yqalam sohiblari, ijodkorlar kabi, avvaliga qoralama va chizgilar chizishdan unumli foydalansalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning qoralama va qalamchizgilarni muntazam ravishda chizishni odat qilishlari, uzoq muddatli tasvirlash jarayonida yaqindan yordam beradi.

Ko'p hollarda qalamtasvir mashg'ulotlarida uzoq muddatli tasvirlashni o'rganayotgan talabalar, ishni ma'lum vaqtdan so'ng davom ettirishga ya'ni yakuniga yetkazishga qiynalib qoladilar. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda talabalar 8 soat, 12 soat, 16 soat davomida bajarilishi kerak bo'lgan naturalarni tasvirlashda, deylik taxminan 4-6 soat ishlaganlaridan so'ng, ishni qanday davom ettirishni bilmay qoladilar. Buning sababi shuki ularda yetarlicha bilim va ko'nikmalarni yetishmayotganligidan dalolat beradi. Bu muammoni yechishda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek qoralama va qalamchizgilar chizishdan unumli foydalanilishi kerak.

E'tiborlisi shuki talaba o'z ustida muntazam ishlagani tufayli, bilim, ko'nikma, malakalar shakllanib boradi.

Bunday holatda ular chizayotgan tasvirlarga qancha vaqt ajratsa shunchalik jilolanib - jonlanib boraveradi. Shu jarayonda bo'lajak yosh ijodkorlar san'at olamiga asta-sekinlik bilan qadam tashlab boradi. Bu harakatlar vaqti kelib kelajakda yuqori saviyadagi san'at asarlarini yaratilishga turtki ham bo'ladi.

San'at olamidani ma'lumki, oddiy qalamda yoki shu kabi tasvirlash vositalarida (savis, sangina tush) qoralama, qalamchizgilar va xomaki rasmlarni muntazam ravishda chizib yurishni odat qilish natijasida yetuk mo'yqalam sohiblari yetishib chiqqanlar. Bunga misol qilib tasviriy san'at borasida o'lgan muvafaqiyatlarni qo'lga kiritib jahonga mashhur ko'plab badiiy asarlar

<sup>4</sup> Boymetov B. Qalamtasvir. –Toshkent. “Musiqqa” nashriyoti 2006 y. 197 bet.

yaratgan ijodkor rassomlardan Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt Xarmens van Reyn, Karl Bryullov, Shishkin Ivan Ivanovich. O'zbekistonlik rassomlardan O'ral Tansiqbayev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Laylo Salimjonova, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Ortiqali Qozoqov, Nuriddin Kalonov, Asliddin Isayev, Nodira Oripova kabi ko'plab rassomlarni aytish mumkin.

Endi diqqatimizni tasviriy san'atning natyurmort janriga qaratsak. Tasviriy san'at janrlaridan biri bu natyurmort deb ataladi. Natyurmort-jonsiz tabiat degan ma'noni bildiradi.

Tasvirlashni o'rganish qulayroq bo'lishi uchun natyurmortdan foydalanish lozim.

Natyurmortlarni tuzish va uni tasvirlashda ko'pincha uy ro'zg'orda ishlatiladigan turli xil buyumlar, o'quv va durodgorlik qurollari, gullar, sabzavot va mevalar, sport buyumlari va hokazolardan foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak. Chizish uchun kerakli naturalar, turli xil buyumlar va rangli matolar tanlab olingandan so'ng uni maqsadga muvafiq to'g'ri joylashtirish kerak. Natyurmort orqali, natyurmortga qarab, undan foydalanib qoralama va qalamchizgilar ishlashni to'g'ri tashkil etilsa, tasvirlashda ancha qulayliklarga erishiladi.

Shuningdek tasvirlashni o'rganishda oddiydan murakkab tamonga qarab harakat qilib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tajribasiz yosh ijodkorga bajarish uchun murakkab amaliy topshiriqlar berilsa, shubhasiz bu topshiriqni yakuniga yetkazib bajarishga qiynalib qoladi. «Rasm chizish uchun naturalardan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o'rganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi»<sup>5</sup>. Ushbu fikrlar ham yuqoridagi fikrimizga misol bo'la oladi. «Naturadan bajariladigan chizgilar, o'rab turgan muhit predmetlarining tashqi ko'rinishini ko'rib o'rganish, ularning estetik mohiyatini anglash, yengil, ravon, bejirim qirralari, rang barang qurish, hajmning go'zalligi, tasvirlanayotgan ob'ektlarning bir-biriga o'zaro aloqadorligini ko'rib o'rganishda muhim vositadir. Tezkor chizgilar, manzara, inson, hayvonlarning ajralib turuvchi tomonlarini kuchli sezishga o'rgatadi»<sup>6</sup>.

Ko'p hollarda qalamtasvir, rangtasvir, naqqoshlik, kompozisiya, mashg'ulotlarida, talabalariga qoralama va qalamchizgi, ranglavha yoki ishni xomaki rasmlari oddiy qalamda, yoki dastlabki ranglavhada bajarib kelishlarini ustozlar tomonidan uyga vazifa qilib topshiriladi. Bu borada qalamtasvir faniga to'xtaladigan bo'lsak, ayrim talabalar tasvirlashni yaxshi o'zlashtirishda qoralama va qalamchizgilar ishlashning ahamiyati yo'q deb o'ylaydilar. Ba'zi hollarda ular amaliy mashg'ulot jarayonida ishlayotgan uzoq muddatli qalamtasvirlarini o'rganish uchun yetarli deb tushunadilar. Bunday fikr yuritish xato albatta. Doim ijod bilan mashg'ul rassomlar odatda rasm chizish jarayonida oddiy qalamdan foydalanib qoralama va qalamchizgilar chizishdan keng foydalanadilar. «Keling fikrlarimizni jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan bog'lashga harakat qilib ko'ramiz. Hammamizga ma'lumki, jismoniy tarbiya darslarida ustozlar amaliy mashg'ulot boshlanishi avvalida shogirdlariga turli yengil jismoniy mashqlarni bajartiradilar. Bunga misol qilib shogirdlar tomonidan sport maydoni bo'ylab asta-sekinlik bilan yugurish mashqlari o'tkaziladi. Undan so'ng qo'l, oyoq va tananing boshqa a'zolari yordamida yengil harakatlari bajartiriladi.

<sup>5</sup> O'rolov S. Mo'jiza yaratish san'ati. –Toshkent. “Mehnat” nashriyoti 1996 y. 127 b.

<sup>6</sup> A. Kalonov. Qoralama va xomaki chizgilar. –Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti 2013 y.104 bet.

Shu jarayonda nafas olish va nafas chiqarish mashqlarini ham bajariladi. Bu bilan ustozlar talabalar organizimini navbatdagi murrakkab jismoniy mashg'ulotlariga tayyorlaydilar»<sup>7</sup>.

Bu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, uzoq muddatli qalamtasvir ishlash jarayonida ham talaba yuqorida takidlab o'tilgan fikrlarga xos xarakter qilishi lozim bo'ladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotidagi singari talaba, rasm chizishga kirishishida dastlab, yengil mashqlar ya'ni qoralama va qalamchizlarni o'z vaqtida bajarmasa, tavsiyalarga rioya etmasa, ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Badiiy ijodiy jarayonda muammo va qiyinchiliklarga duch keladi.

San'at turlarining uzviy bog'liqligi haqida fikr yuritib, quyida oddiy milliy natyurmortni san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligiga bir nazar solsak. (1-rasm) Natyurmortning milliy uy ro'zg'or buyumlaridan tashkil topganligi uchun, u «Milliy natyurmort» deb atalmoqda. Milliy natyurmortga qarab chizilgan tasvirda esa biz mis ko'za, gips naqsh rozetka, sapol piyola va rangli matoni ko'rishimiz mumkin. Natyurmortda qo'yilgan milliy mis ko'za bevosita amaliy bezak san'ati bilan, uning oldi tomonida turgan naqsh rozetka esa me'morchilik va naqqoshilik san'ati bilan, natyurmortdagi sapol piyola kulolchilik san'ati bilan, buyumlarning muhitini estetik va funksional sifatlarini hisobga olinsa loyihalash va dizayn san'ati bilan bog'liq ekanligini sezishimiz mumkin.

Xalq amaliy bezak san'ati turlaridan biri bu naqqoshlikdir. Uzoq tarixga ega bo'lgan va eng ommaviy hisoblangan xalq amaliy san'ati asrlar osha bizgacha yetib kelgan. Hamda mehnatkash xalqning boy ijodi sifatida hamon kishilarni hayratga solib kelmoqda. Xalq amaliy bezak san'ati turlari ichida naqqoshlikning o'ziga xos o'rni bor. Naqqoshlik san'ati bevosita xalq amaliy bezak san'ati turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki naqqoshlikdagi turli naqsh elementlari, gullari, chizgilar va boshqalar xalq amaliy bezak san'ati turlarida takrorlanadi.

Qisqacha qilib aytganda xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Naqshlardagi chiziqlar xalqning go'zallikka, mukammalikka intilishining namunasidir. Shuningdek kelajakka ishonchning ifodasi bo'lib aks-sado beradi. Naqqoshlik san'ati o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng go'zal, yorqin, jozibali va nafis turlaridan biridir. Azaldan bobokolonlarimiz, ajoyib ustalar naqqoshlik san'ati sirlarini o'zlashtirish borasida o'z ijodiy yutuqlarini bog'lab olib borganlar. O'tmishda ijodkorlar turli naqsh elementlarini chizishda, eng soddalashtirilgan ko'rinishidagi ajoyib namunalari qo'llanilgan.

Ulardan bugungi kunga qadar yetib kelgan gullar, barglar, g'uncha, turli mevalarning soddalashtirilgan (stilizatsiya) chizgilarini misol qilish mumkin.


Ajdodlarning naqqoshlik san'ati borasidagi boy tajribasi, bilim va malakalari necha asrlar osha bizning davrimizgacha yetib kelmoqda. Naqqosh ustalar tomonidan to'plangan boy madaniy tajriba, madaniy meros, yorqin ranglar jilosi, nozik didli bezaklar, yuqori madaniy saviyadagi naqshlarda o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlanib kelgan turlaridan biri bu naqqoshlikdir. Naqqoshlikning Markaziy Osiyo tarixi madaniyatidagi o'rni beqiyos o'lgan bo'lib juda qadim zamonlarda me'morchilik qurilish ishlari bilan uzviy bog'liq ravishda taraqqiy etganligi ma'lum.

Naqsh - gul, bezak degan ma'noni anglatib amaliy san'at asarlariga chiroy bag'ishlaydi.

<sup>7</sup> Sh. B. Oydinov. Oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at mashg'ulotlarida etyudlar ishlashni o'rgatish metodikasi. SamDU "Ilmiy Axborotnoma". Pedagogika. №2 (118) 2021. 181 bet.

Bunday bezak unsurlar esa tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi hamda hayvonlar tasvirlarining eng sodda ko'rinishlari aks ettiriladi. Xalq ustalari tamonidan bunyod etilgan me'moriy obidalar, turar joy binolari, uy ro'zg'or buyumlariga solingan o'ziga xos badiiy naqshlar go'zallikni idrok etishga yordam beradi. Shuningdek man'aviyatimiz va o'zligimizni chuqur anglashimiz borasida bebahodir.



***1-rasm. ushbu natyurmort orqali san'at turlarini o'zaro bo'g'liq ekanligini ko'rish mumkin.***

Biz quyida Bexzod Bulatov tamonidan yaratilgan ko'p qirrali stol va xontaxtani yaratilishida qoralama va qalamchizgilarni o'rni, shuningdek ushbu san'at asarini san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga harakat qilib ko'ramiz. Usta naqqosh Bexzod Bulatov ko'p qirrali stol va xontaxtani yaratishda, avvaliga oddiy qalamdan foydalanib chizgi va turli qoralama eskizlar yordamida, uning bo'lajak loyihasini yaratib olgan. Yani buyumning estetik va funksional sifatlarini hisobga olgan holda dizayn modelini yaratgan.

Dizayn modeliga mos ravishda milliy naqsh kompozitsiyasi tuzilgan va shu asosida buyum naqqoshlik san'ati bilan badiiy bezatilgan. Albatta kerakli ijodiy naqsh kompozitsiyasi tuzish, uni qoralamasini tekislik yuzasiga tushurish oson ish emas. Buning uchun naqqosh birinchi navbatda oddiy qalam bilan qalamchizgilar yordamida, naqsh kompozitsiyasining dastlabki qoralamalarini tayyorlagan. Badiiy bilim va tajribalaridan foydalanib, bir-necha xomaki holatdagi naqsh kompozitsiyasi qoralamalarini umumlashtirish orqali, yangi naqsh namunasini vujudga keltiradi. Ijodiy ishni davom ettirib, bir-necha bosqichlar asosida, yordamchi materiallar orqali yangi tuzilgan naqqoshlik kompozitsiyasini sakkiz qirrali xontaxta yuzasi tekisliklarida o'z aksini topishiga erishadi.

Natijada kompozitsiyaning namunasi simmetrik tarzda tekislik yuzalariga ko'chirilib o'tkaziladi.

Shundan so'ng ish jarayonida, xontaxta yuzasidagi naqqoshlik kompozitsiyasi qoralamasiga turli rangli bo'yoqlar yordamida rang berish va pardoqlash, siyoh qalam qilish ishlari olib boriladi. Ish ma'lum tartib qoidalarga tayangan holda davom ettiriladi va yakuniy bosqichda ishlov beriladi. Naqqoshlik san'ati bilan badiiy bezatilgan buyumlarning ko'rkamligi va tabiat tasirlariga chidamligini oshirish uchun laklanadi. Ushbu sakkiz qirrali xontaxta va stol yuqori saviyadagi amaliy bezak san'ati asari hisoblanadi.

Shu o'rinda ish jarayonini diqqat bilan kuzatilsa, sakkiz qirrali xontaxta va stolning badiiy bezatilishida, bevosita san'atning boshqa turlari, xattoki boshqa fanlar bilan ham bog'liq ekanligi namoyon bo'ladi. Misol uchun rangshunoslik, amaliy san'at, tasviriy san'at, dizayn, matematika, muhandislik grafikasi, loyihalash va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. (2-rasm)



**2-rasm. Bexzod Bulatov. Ko'r qirrali stol va xontaxta. Toshkent, 2007-y.**

Darhaqiqat yaratilayotgan naqsh kompozitsiyalariga chiziqlar, ranglar o'z o'rnida ishlatilib, did bilan bajarilgan rangli pardoqlardan so'ng, nafis chiziqlar tortilsa, to'laqonli naqqoshlik san'ati asari vujudga kelishi tabiiydir. Bilim, tajriba va mahorat asosida, turli gul va bog'lamlarni birlashtirib badiiy did bilan chizilgan turli buyumlardagi naqsh kompozitsiyalari kishilarni diqqatini o'ziga tortib, estetik did va zavq beradi. O'zingiz ham bunday takrorlanmas ajoyib badiiy asarni ko'rib ko'nglingizda o'lkan taskinlik paydo bo'ladi. Erishgan yutug'ingiz, mehnatingizdan rohatlanasiz. Eng muhimi asabingizni nihoyatda tinchlantiradi. Dam olasiz. Bu esa sizni yana va yana yangi orzular va umidlarga chorlab badiiy ijod sari yetaklaydi.

Ijodkorning yaratgan asari avvalom bor o'ziga yoqishi, ijodkorni o'zini to'liqlantirishi lozim. Albatta ijodkorni o'zini ilhomlantirgan, to'liqlantirgan san'at asarlari tamoshabinni ham o'ziga chorlab, estetik did va zavq bag'ishlashi tabiiydir.

San'at sirlari bilan yaqindan tanishib borar ekanmiz, ularning nihoyatda bir-biri bilan bog'liq ravishda taraqqiy etayotganligi ko'zga tashlanaveradi. Ajoyib usta, naqqosh, bunyodkor ajdodlarimiz me'morchilik obidalarini nafis tasvirlar, naqshlar bilan badiiy bezaganlar.

Bunga misol qilib quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin. “XVII asrda tasviriy san’at me’morchilikda ham keng ishlatilganligini ko’rishimiz mumkin. Bu borada, ayniqsa, 1619-1635 yillarda qurilgan Samarqanddagi Sherdor madrasasi peshtoqiga ishlangan tasvirlar katta e’tiborga egadir. Bu bino peshtoqining naqshinkor kompozitsiyasi bilan uyg’un tasvirlangan oqtoq fonida ohuga tashlanayotgan sherning surati jozibali bir ko’rinishda aks ettirilgan.

Sher va ohuning tasviri chiroyli shakl, aniq, mazmun va ko’rinishga ega bo’lib qolmasdan, tabiat olamining siru asrorlarini eslatayotgan ramziy belgiga ham o’xshab ketadi.

...Bu davrga kelib me’morlik san’atida bezakka yana e’tibor orta boshladi. Buxoroda katta qurilishlar davom etdi. Shunday yodgorliklardan biri 1652-yili barpo etilgan Abdulazizxon madrasasi hisoblanadi. Nisbatlari nihoyatda go’zal, oltin halli koshinlari yozuv, naqsh va rasmlar uyg’unligida ajoyib manzara hosil qiladi. Madrasaning tashqi peshtoq bezagi naqsh va afsonaviy jonivorlar tasviri bilan bezatilgan”<sup>8</sup>. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq respublikamizning barcha hududlarida katta qurilish, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda ham faxrlanishga arziydigan zamon talablariga mos turar joy binolari, davr ruhiyatiga mos bozor va mehmonxona kabilar me’morlikning so’nggi andozalari asosida qad ko’tarmoqda. Qadimiy me’morchilik yodgorliklari ta’mirlanib, qayta milliy ruh bilan tiklandi. Ayrim me’morchilik obidalarini o’zbek xalq amaliy bezak san’ati bilan nihoyatda boy qilib bezatilmoqda. «Imom al Buxoriy kabi butun umrini iymon va e’tiqod, ilm ma’rifat, diyonat yo’lida baxshida etgan ulug’ zotlar xotiralarini e’zozlash, ular nomlari bilan bog’liq joylarni obodonlashtirishga alohida e’tibor berila boshlandi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29-apreldagi “Imom al Buxoriy tavalludining hijriy qamariy taqvim bo’yicha 1225-yilligini nishonlash to’g’risida”gi qarori asosida allomaning maqbarasi o’rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo’qon, Shahrisabz. Xalq ustalari tamonidan 1998 yilda qurildi.

Yodgorlik majmui islom olami va ota bobolarimiz tamonidan qadimdan rivojlanib kelayotgan milliy me’morchilik san’ati asosida bunyod etilib, badiiy bezatilishida milliy amaliy bezak sanati turlaridan o’rinli foydalanilgan”. Bu kabi bunyodkorlik ishlari bugungi kunda ham davom etib tasviriy, amaliy va me’morchilik san’ati o’zaro chambarchas bog’langan holda yanada taraqqiy etmoqda. San’at turlarining ravnaq topishida qanchadan – qancha ijodkorlar ter to’kib mehnat qilganlar. Bu borada o’z san’atlarini namoyaon etishlari uchun shubhasiz chizgan qoralama va chizgilardan keng foydalanganlar. Ularning boy tajribasi, badiiy mahorati, bilim va ko’nikmalari, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Dizayn va loyihalash ishlari bevosita amaliy san’at, badiiy bezak, me’morchilik san’ati bilan chambarchas bog’liqdir. Dizayn modellarini yaratishda ham bir qancha xomaki rasm, qalamchizgilarni yig’indisidan yangi dizayn modelini loyihagini yaratish mumkin. Dizayn ishlarining ahamiyati shundaki ular estetik didni shakllantirib, san’at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o’rgatadi. Mehnatga hurmat va muhabbatni tarbiyalaydi. Mehnat ko’nikmalarini egallashda yaqindan yordam beradi.

Loyihalash inson hayoti va ehtiyoji uchun juda zaruriy bo’lgan badiiy-maishiy xarakterdagi san’at asarlarini yaratish vositalari, usullari va yo’llarini egallashda yordam beradi.

Turli buyumlarini ishlab chiqarishda zamon talablari mos, badiiy jihatdan ko’rkam va qulay bo’lishi talab etiladi. Bunday holatda loyihalash qonun qoidalari va usullari orqali ish yuritish muhimdir.

<sup>8</sup> Sh. B. Oydinov. Tasviriy san’at tarixi. “Samarqan davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2026-yil 179-180 betlar

Ijodkor eng sodda buyumlardan murakkab korxonalar uslublarini reklama qilishi kerak bo'ladi. Shuningdek eng sodda ya'ni, hayvonot olami, o'simliklar dunyosi ko'rinishlarini sodda tushunarli, emblema darajasiga olib kelishlari lozim. Shu bilan birga loyihani bajarilishini chuqur va har tomonlama xomaki qoralama yechimidan tortib, ayrim qismlarini badiiy jihatdan yuqori saviyada yechimini topishdan iboratdir. Loyihalovchi ijodkor bevosita zamonaviy loyihalashtirish va ishlab chiqarish tajribalarini qoralama va qalamchigilar orqali olib boradi.

Shu o'rinda loyihalash fanini boshqa sohalar bilan bog'liqligiga e'tibor qaratsa to'g'ri bo'ladi. Loyihalash fani kompozitsiya asoslari, rangshunoslik, amaliy san'at, kompyuter grafikasi, fotokompozitsiya, g'ilof konstruksiyalari, rangtasvir, chizmatasvir fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Loyihalash fanining vazifasi zamon talabiga qarab dizaynerlar, rassom bezatuvchilar, ijodkor rassomlar va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat.

Xulosa qilib shuni atish mumkinki, eng qadimgi davrlardan boshlab ajoyib usta naqqosh bunyodkor ajdodlarimiz turli buyumlar va me'morchilik obidalarini nafis tasvirlar, naqshlar bilan badiiy bezaganlar. Dizayn va loyihalash ishlarining ahamiyati shundaki ular estetik didni shakllantirib, san'at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o'rgatadi. Mehnatga hurmat va muhabbatni tarbiyalaydi Mehnat ko'nikmalarini egallashda yaqindan yordam beradi.

San'at turlaridan tasviriy san'at, amaliy san'at, naqqoshlik me'morchilik, dizayn, loyihalash kabi san'at turlarining uzviy bog'liqligi haqida fikr yuritib ularning taraqqiyotida qoralama va qalamchizgilarni o'rnini yoritib berishga harakat qilindi. San'at sirlari bilan yaqindan tanishib borar ekanmiz, ularning nihoyatda bir-biri bilan bog'liq ravishda taraqqiy etayotganligi ko'zga tashlanaveradi. Shuningdek san'at turlarini taraqqiyotida qoralama va qalamchizgilar ishlashdan o'rinli foydalanish ish samaradorligini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ham bo'ladi. San'atning qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar ijodkor, bo'lajak asarlarini yaratishda turli chiziqlarning ingichka, to'g'ri, ravon va toza chizishi, estetik tamondan muhim ahamiyatga ega. Misol uchun naqqoshlik san'atida oddiy qalam yoki mo'yqalam orqali chiziqlarni silliq, ravon va me'yoriga yetkazib tortilishi judamuhimdir. Chunki yangidan yaratilgan naqshlarda o'zingiz chizgan chiziqlarning yutuqli tamonlarini ko'rib kayfiyatingiz va ruhiyatingiz ham ko'tariladi. Har bir chizilgan chiziq, naqsh kompozitsiyalaridagi mo'yqalam orqali tortilgan nafis siyoh qalamlar bo'lajak asarning taqdirini belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oydinov Sharip. Oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at mashg'ulotlarida etyudlar ishlashni o'rgatish metodikasi. *SamDU* ("Ilmiy axborotnoma" 2021. 2-son. E-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz))
2. Ойдинов Н. Рассом-ўқитувчиларни тайёрлаш муаммолари. Тошкент "Ўқитувчи", "Зиё-ношир", 1997.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3. М. Маъруфов таҳрири остида. II-том. Москва. "Рус тили" нашриёти 1981.
4. Боуметов В. Qalamtasvir. –Toshkent. "Musiqqa" nashriyoti 2006.
5. O'rolov S. Mo'jiza yaratish san'ati. –Toshkent. "Mehnat" nashriyoti 1996.
6. A. Kalonov. Qoralama va xomaki chizgilar. –Toshkent. "Tafakkur" nashriyoti 2013.
7. Sh. V. Oydinov. Tasviriy san'at tarixi. "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti. 2026.
8. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, "Мехнат", 1991.

9. G'ulomov K.M. Amaliy san'at. Toshkent. IQTISOD-MOLIYA, 2007
10. Bahronob. B. R. Loyihalarni boshqarish. Toshkent "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti 2025.
11. Зокир Сотиболдиев. Дизайн асослари. Тошкент "ИҚТИСОД-МОЛИЯ" 2008.